

TARBIYA JARAYONIDA INSONPARVARLIKNI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY PEDAGOGIK MODELI

Xudayberdiyeva Odina Marubjon qizi

Namangan davlat universiteti tayanch doktoranti

Aydinaxudayberdiyeva@gmail.com

Otabayeva Sevaraxon Shaxobbidinova

Andijon davlat universiteti, Dasturiy injiniring kafedrası o'qituvchisi

Otabayevasevara75@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur maqolada tarbiya jarayonida insonparvarlik g'oyalarini rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik asoslari chuqur ilmiy tahlil qilinadi. Tadqiqotda zamonaviy ta'lim muhitida tarbiyaviy faoliyatning mazmuni va samaradorligini oshirishda insonparvarlik yondashuvining o'рни va ahamiyati asoslab berilgan. Inson shaxsining ijtimoiy, axloqiy va ma'naviy kamolotini ta'minlashda pedagogik jarayonning tashkiliy jihatlari, ta'lim subyektlari o'rtasidagi hamkorlik va tarbiyaviy muhitning ta'siri alohida ko'rib chiqiladi. Ilmiy manbalar tahlili, pedagogik kuzatuv va tahliliy yondashuvlar asosida tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik modelning mazmun-mohiyati ochib beriladi. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirish hamda insonparvarlikka asoslangan pedagogik faoliyatni samarali tashkil etishda amaliy ahamiyat kasb etadi.

Kalit so'zlar: tarbiya jarayoni, insonparvarlik, pedagogik model, tashkiliy-pedagogik faoliyat, ma'naviy-axloqiy tarbiya.

ORGANIZATIONAL PEDAGOGICAL MODEL OF DEVELOPING HUMANITY IN THE EDUCATIONAL PROCESS

Abstract: This article provides a comprehensive scientific analysis of the organizational and pedagogical foundations for developing humanistic values in the educational process. The study substantiates the significance of a humanistic approach in enhancing the effectiveness and content of educational activities within a modern learning environment. Particular attention is given to the organizational aspects of the pedagogical process, cooperation among educational stakeholders, and the influence of the educational environment on the social, moral, and ethical development of learners. Based on the analysis of academic literature, pedagogical observations, and analytical methods, the article reveals the conceptual essence of an organizational and pedagogical model aimed at fostering humanism in education. The findings contribute to the improvement of educational practices and the effective implementation of humanistic principles in pedagogical activities.

Keywords: educational process, humanism, pedagogical model, organizational pedagogy, moral education.

ОРГАНИЗАЦИОННО-ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ГУМАННОСТИ В ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОЦЕССЕ

Аннотация: В статье представлен углублённый научный анализ организационно-педагогических основ развития гуманистических ценностей в воспитательном процессе. Обоснована значимость гуманистического подхода в повышении эффективности и содержательного наполнения воспитательной деятельности в современных образовательных условиях. Особое внимание уделяется организационным аспектам педагогического процесса, взаимодействию участников образования и влиянию воспитательной среды на социальное, нравственное и духовное развитие личности. На основе анализа научных источников, педагогических наблюдений и аналитических методов раскрывается сущность организационно-педагогической модели, направленной на развитие гуманизма в воспитании. Результаты исследования имеют практическую значимость для совершенствования воспитательной работы и внедрения гуманистических принципов в педагогическую деятельность.

Ключевые слова: воспитательный процесс, гуманизм, педагогическая модель, организационно-педагогическая деятельность, нравственное воспитание.

KIRISH

Zamonaviy jamiyat taraqqiyoti sharoitida ta'lim tizimi oldida turgan eng muhim vazifalardan biri shaxsni nafaqat bilimli va kasbiy jihatdan yetuk, balki ijtimoiy mas'uliyatli, ma'naviy barkamol va insonparvar qadriyatlarga sodiq holda tarbiyalashdan iboratdir. Globallashuv jarayonlari, axborot makonining kengayishi hamda ijtimoiy munosabatlarning murakkablashuvi ta'lim-tarbiya jarayonida inson omiliga bo'lgan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etmoqda. Shu nuqtayi nazardan, tarbiya jarayonida insonparvarlik g'oyalarini rivojlantirish masalasi bugungi pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

Insonparvarlik pedagogikasi shaxsning erkin rivojlanishi, uning qadr-qimmati va huquqlarini hurmat qilish, individual imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish g'oyalariga asoslanadi. Tarbiya jarayonida ushbu yondashuvni izchil amalga oshirish pedagogik faoliyatning mazmuni, shakli va tashkil etilish mexanizmlarini qayta ko'rib chiqishni taqozo etadi. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarning tashkiliy jihatlari, pedagoglar, tarbiyalanuvchilar va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro hamkorlik insonparvarlik tamoyillarining real hayotga tatbiq etilishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda ta'lim jarayonida innovatsion texnologiyalar va zamonaviy metodlarning keng joriy etilishi bilan bir qatorda, tarbiyaviy faoliyatda

ma'naviy-axloqiy qadriyatlarga asoslangan yondashuvlarga bo'lgan ehtiyoj ham ortib bormoqda. Biroq amaliyot shuni ko'rsatmoqdaki, tarbiya jarayonida insonparvarlik g'oyalari ko'pincha deklarativ xarakterda qolib, ularni tizimli va samarali amalga oshirish mexanizmlari yetarlicha ishlab chiqilmagan. Bu holat tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, muvofiqlashtirish va nazorat qilishda aniq tashkiliy-pedagogik yechimlarga ehtiyoj mavjudligini ko'rsatadi.

Tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik modeli aynan shu ehtiyojdan kelib chiqadi. Bunday model tarbiyaviy faoliyatni izchil, maqsadga yo'naltirilgan va tizimli asosda tashkil etish imkonini beradi. Unda pedagogik jarayon ishtirokchilarining rollari, o'zaro aloqalari va mas'uliyatlari aniqlashtiriladi hamda tarbiyaviy muhitning insonparvarlik ruhida shakllanishi ta'minlanadi. Shu orqali tarbiya jarayoni shaxsning ichki ehtiyojlari, qiziqishlari va ijtimoiy tajribasiga mos holda tashkil etilishi mumkin bo'ladi.

Mazkur tadqiqotning dolzarbligi shundaki, u zamonaviy ta'lim muassasalarida tarbiyaviy faoliyatni takomillashtirish, insonparvarlikka asoslangan pedagogik yondashuvni tizimli ravishda joriy etish va uning samaradorligini oshirish masalalarini ilmiy asosda yoritishga qaratilgan. Insonparvarlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan tashkiliy-pedagogik model ta'lim jarayonida nafaqat tarbiyalanuvchilarning ma'naviy-axloqiy rivojiga, balki pedagoglarning kasbiy faoliyatida ham ijobiy o'zgarishlarni yuzaga keltirishi bilan ahamiyatlidir.

Shu jihatdan, ushbu maqolada tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan chuqur tahlil qilinadi hamda pedagogik faoliyatni insonparvarlik tamoyillari asosida tashkil etishning samarali yo'llarini aniqlashga alohida e'tibor qaratiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni ilmiy asosda tashkil etish va takomillashtirishga xizmat qilishi bilan birga, pedagogika fanining nazariy bazasini boyitishga ham muayyan hissa qo'shadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Tarbiya jarayonida insonparvarlik g'oyalarining shakllanishi va rivojlanishi pedagogika fanining markaziy masalalaridan biri hisoblanib, mazkur yo'nalish

bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar uzoq tarixiy va nazariy asosga ega. Insonparvarlikka asoslangan ta'lim-tarbiya masalalari dastlab klassik pedagogik tafakkur doirasida shakllangan bo'lib, unda shaxs erkinligi, uning qadr-qimmatini va tabiiy imkoniyatlarini rivojlantirish g'oyalari ustuvor ahamiyat kasb etgan. Xususan, Y.A. Komenskiy ta'lim va tarbiya jarayonida inson tabiatiga moslik va mehr-muhabbat tamoyillarini ilgari surgan holda, pedagogik faoliyatning insonparvarlik mohiyatini asoslab bergan [1]. Ushbu g'oyalar keyinchalik pedagogik nazariyaning rivojida muhim metodologik asos vazifasini bajargan.

Insonparvarlik pedagogikasining nazariy asoslari XX asrda yanada chuqurlashib, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv konsepsiyalari bilan boyidi. J. Dewey tomonidan ishlab chiqilgan pragmatik pedagogika g'oyalari ta'lim jarayonini shaxsning ijtimoiy tajribasi va ehtiyojlari bilan uzviy bog'lash zarurligini ta'kidlab, tarbiya jarayonining insonparvarlik mohiyatini yangi bosqichga olib chiqdi [2]. Dewey qarashlarida tarbiya jamiyat va shaxs o'rtasidagi faol muloqot sifatida talqin qilinib, bu jarayonda o'quvchining mustaqilligi va ijtimoiy faolligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Gumanistik psixologiya vakillari tomonidan ilgari surilgan ilmiy qarashlar ham tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirish masalasiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. A. Maslow va C. Rogers asarlarida shaxsning o'zini-o'zi anglash, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqarish va ijobiy "Men" konsepsiyasini shakllantirish masalalari markaziy o'rinni egallaydi [3]. Ushbu yondashuv tarbiya jarayonida majburlash va avtoritar usullardan voz kechib, pedagogik munosabatlarni hamkorlik va ishonch asosida qurish zarurligini asoslaydi.

Mahalliy pedagogika fanida ham insonparvarlikka asoslangan tarbiya masalalari keng tadqiq etilgan. O'zbekiston Respublikasi ta'lim tizimini rivojlantirishga oid normativ-huquqiy hujjatlarda tarbiya jarayonining insonparvarlik, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslanganligi alohida ta'kidlanadi. M. Ochilov, R. Jo'rayev va B. Qodirov kabi olimlarning tadqiqotlarida tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda shaxsning ma'naviy-axloqiy rivojiga qaratilgan pedagogik yondashuvlar ilmiy jihatdan asoslab berilgan [4]. Ushbu ishlarda tarbiya jarayonining tashkiliy jihatlari, pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi

munosabatlarning insonparvarlik ruhida tashkil etilishi muhim shart sifatida ko'rsatiladi.

So'nggi yillarda olib borilgan tadqiqotlarda tarbiya jarayonini samarali tashkil etishda pedagogik model tushunchasiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Xususan, V.I. Zagvyazinskiy va N.V. Kuzmina tomonidan pedagogik jarayonni modellashtirish masalalari yoritilib, pedagogik faoliyatni tizimli asosda tashkil etish zarurligi ilmiy jihatdan asoslangan [5]. Mazkur yondashuv tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirish uchun muhim metodologik zamin yaratadi, chunki model pedagogik faoliyatning maqsadi, mazmuni va natijalarini o'zaro uyg'un holda ko'rib chiqish imkonini beradi.

Shu bilan birga, ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, insonparvarlik g'oyalarining tarbiya jarayoniga tatbiqi ko'pincha umumiy nazariy qarashlar doirasida yoritilib, ularni amaliyotda samarali amalga oshirishga xizmat qiluvchi aniq tashkiliy-pedagogik mexanizmlar yetarlicha ishlab chiqilmagan. Ayniqsa, ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni rejalashtirish, muvofiqlashtirish va baholash jarayonlarida insonparvarlik tamoyillarini tizimli ravishda joriy etish masalasi dolzarb bo'lib qolmoqda. Ushbu holat mazkur tadqiqotning ilmiy ahamiyatini belgilab, tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik modelini ishlab chiqish zaruratini yuzaga keltiradi.

Mazkur tadqiqot tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik modelini ilmiy asoslash va uning samaradorligini aniqlashga qaratilgan bo'lib, unda pedagogika fanining nazariy va amaliy yutuqlariga tayangan holda kompleks metodologik yondashuv qo'llanildi. Tadqiqot jarayonida insonparvarlik tushunchasining pedagogik mohiyatini aniqlash, tarbiya jarayonidagi o'rni va ta'sir mexanizmlarini ochib berish hamda mavjud tarbiyaviy amaliyotni ilmiy tahlil qilish asosiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Tadqiqotning metodologik asosini shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi, gumanistik pedagogika g'oyalari hamda tizimli yondashuv tashkil etadi. Ushbu yondashuvlar tarbiya jarayonini shaxsning individual xususiyatlari, ehtiyojlari va ijtimoiy tajribasi bilan uzviy bog'liq holda o'rganish imkonini berdi. Shuningdek, pedagogik jarayonni yaxlit tizim sifatida tahlil qilish orqali tarbiyaviy faoliyatning

tashkiliy jihatlar va insonparvarlik tamoyillari o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik aniqlashtirildi.

Tadqiqot davomida ilmiy bilishning nazariy va empirik usullaridan uyg'un holda foydalanildi. Nazariy tahlil orqali tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirishga oid ilmiy qarashlar, konsepsiyalar va pedagogik modellar o'rganildi hamda umumlashtirildi. Ushbu jarayonda pedagogika, psixologiya va ta'lim falsafasiga oid manbalar qiyosiy va mantiqiy tahlil asosida ko'rib chiqildi. Bu esa tadqiqot mavzusining ilmiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qildi.

Empirik bosqichda esa ta'lim muassasalaridagi mavjud tarbiyaviy amaliyot holati tahlil qilindi. Pedagogik kuzatuvlar orqali tarbiya jarayonida pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabatlar, tarbiyaviy tadbirlarning mazmuni va ularning insonparvarlik g'oyalari mosligi o'rganildi. Shuningdek, pedagoglar va ta'lim muassasasi rahbarlari bilan olib borilgan suhbatlar orqali tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda uchrayotgan muammolar va imkoniyatlar aniqlashtirildi. Olingan ma'lumotlar tahliliy yondashuv asosida qayta ishlanib, umumiy xulosalar chiqarildi.

Tadqiqotda pedagogik jarayonni modellashtirish usuli muhim o'rin egalladi. Ushbu usul orqali tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirishga xizmat qiluvchi tashkiliy-pedagogik model ishlab chiqildi va uning tarkibiy jihatlar asoslab berildi. Modellash jarayonida tarbiyaviy faoliyatning maqsadi, mazmuni va natijalari o'zaro uyg'unlikda ko'rib chiqildi, bu esa modelning amaliyotga tatbiq etilish imkoniyatlarini oshirdi.

Olingan empirik ma'lumotlarni qayta ishlash va tahlil qilishda sifat tahlili usullaridan foydalanildi. Bu usul tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarni chuqur anglash va ularning pedagogik jarayondagi namoyon bo'lishini aniqlash imkonini berdi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligini ta'minlash maqsadida turli manbalardan olingan ma'lumotlar o'zaro solishtirildi va umumlashtirildi.

Umuman olganda, qo'llanilgan metodologik yondashuvlar tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik modelini ilmiy asoslash, uning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berish hamda ta'lim muassasalarida

tarbiyaviy faoliyatni takomillashtirishga doir asoslangan xulosalar chiqarish imkonini berdi.

TAHLIL VA MUHOKAMA

Tadqiqot jarayonida olingan nazariy va empirik ma'lumotlarning tahlili tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirish masalasi pedagogik faoliyatning mazmuni va tashkil etilish darajasi bilan bevosita bog'liqligini ko'rsatdi. Ta'lim muassasalarida olib borilgan kuzatuvlar shuni tasdiqladiki, tarbiyaviy ishlar insonparvarlik g'oyalariga yo'naltirilgan bo'lsa-da, ularning samaradorligi ko'p hollarda tashkiliy omillar bilan belgilanadi. Xususan, tarbiyaviy faoliyatning rejalashtirilishi, pedagoglar o'rtasidagi hamkorlik, tarbiyalanuvchilarning ehtiyoj va qiziqishlarini inobatga olish darajasi insonparvarlikning real pedagogik jarayonda namoyon bo'lishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirish ko'pincha alohida tadbirlar yoki umumiy shiorlar bilan cheklanib qolmoqda. Bunday yondashuv insonparvarlik g'oyalarining tizimli ravishda shakllanishiga yetarlicha xizmat qilmaydi. Aksincha, tarbiyaviy faoliyatni izchil va uzviy tashkil etish, pedagogik jarayonning barcha bosqichlarida insonparvarlikka yo'naltirilgan munosabatlarni mustahkamlash zarurati mavjudligi aniqlandi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, insonparvarlik tarbiyasi samaradorligi pedagogik jarayonning tashkiliy jihatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, mazkur jihatlar e'tibordan chetda qolgan hollarda tarbiyaviy natijalar yuzaki bo'lib qolmoqda.

Pedagoglar va ta'lim muassasasi rahbarlari bilan olib borilgan suhbatlar insonparvarlik g'oyalarini amaliyotga tatbiq etishda muayyan qiyinchiliklar mavjudligini ko'rsatdi. Jumladan, tarbiyaviy faoliyatni tashkil etishda aniq metodik yo'riqnomalarning yetishmasligi, pedagoglarning insonparvarlik yondashuvi bo'yicha tayyorgarlik darajasi turlicha ekanligi hamda tarbiyaviy jarayonni baholash mexanizmlarining mukammal emasligi aniqlangan. Ushbu holatlar insonparvarlikni rivojlantirishga qaratilgan tashkiliy-pedagogik modelga ehtiyoj mavjudligini yana bir bor tasdiqlaydi.

Tadqiqot davomida ishlab chiqilgan tashkiliy-pedagogik model tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirishning samarali vositasi sifatida baholandi.

Modelning amaliyotga tatbiq etilishi jarayonida tarbiyaviy faoliyatning maqsadga yo'naltirilganligi va izchilligi oshgani kuzatildi. Tarbiyalanuvchilarning pedagogik jarayonga faolroq jalb etilishi, ularning fikr va tashabbuslarini inobatga olish holatlari ko'paygani, pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi munosabatlarda o'zaro hurmat va ishonch muhitining mustahkamlangani tahlil natijalarida o'z ifodasini topdi. Bu holat insonparvarlik g'oyalarining tarbiya jarayonida real pedagogik mazmun kasb etayotganini ko'rsatadi.

Shuningdek, model asosida tashkil etilgan tarbiyaviy faoliyatda ijtimoiy hamkorlik elementlarining kuchaygani qayd etildi. Ta'lim muassasasi, oila va ijtimoiy muhit o'rtasidagi o'zaro aloqalar tarbiyaviy jarayonning samaradorligiga ijobiy ta'sir ko'rsatgani aniqlandi. Bunday hamkorlik tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, empatiya va boshqalarga nisbatan hurmat kabi insonparvarlik sifatlarining shakllanishiga qulay sharoit yaratdi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirish faqat ma'naviy-axloqiy mazmun bilan cheklanmay, balki pedagogik faoliyatni tashkil etish madaniyatini ham o'zgartiradi. Pedagoglarning o'z kasbiy faoliyatiga bo'lgan munosabati, tarbiyalanuvchilar bilan muloqot uslubi va tarbiyaviy vazifalarni hal etishdagi yondashuvlari insonparvarlik tamoyillariga moslashib borayotgani kuzatildi. Bu esa tarbiyaviy jarayonning umumiy sifat ko'rsatkichlarini oshirishga xizmat qildi.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirish tashkiliy-pedagogik yondashuvni talab etishini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Insonparvarlik g'oyalarining samarali namoyon bo'lishi tarbiyaviy faoliyatning tizimli tashkil etilishi, pedagogik jarayon ishtirokchilarining faol hamkorligi va tarbiyaviy muhitning maqsadga yo'naltirilganligi bilan chambarchas bog'liq ekanligi aniqlandi. Mazkur natijalar tarbiya jarayonini takomillashtirishga qaratilgan ilmiy izlanishlar uchun muhim nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat qiladi.

XULOSA

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirish zamonaviy ta'lim tizimining muhim strategik vazifalaridan biri bo'lib, uning samaradorligi bevosita pedagogik faoliyatning tashkiliy jihatlari bilan

bog'liqdir. Insonparvarlik g'oyalari tarbiyaviy jarayonda shunchaki ma'naviy shior sifatida emas, balki pedagogik munosabatlar, tarbiyaviy muhit va ta'lim subyektlari o'rtasidagi o'zaro hamkorlikning mazmunini belgilovchi asosiy omil sifatida namoyon bo'lishi zarur.

Tadqiqot davomida olib borilgan nazariy va empirik tahlillar tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirishda tizimli va maqsadga yo'naltirilgan tashkiliy-pedagogik yondashuv zarurligini ilmiy jihatdan asoslab berdi. Tarbiyaviy faoliyatning izchilligi, pedagog va tarbiyalanuvchi o'rtasidagi o'zaro hurmatga asoslangan munosabatlar, tarbiyalanuvchilarning ijtimoiy tajribasini inobatga olish va tarbiyaviy muhitning ijobiy psixologik holati insonparvarlik sifatlarining shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatishi aniqlandi.

Ishlab chiqilgan tashkiliy-pedagogik model tarbiya jarayonini insonparvarlik g'oyalari asosida samarali tashkil etish imkonini beruvchi ilmiy-amaliy vosita sifatida o'zining ijobiy natijalarini namoyon etdi. Modelning amaliyotga tatbiq etilishi tarbiyaviy faoliyatning mazmungan boyishiga, pedagogik munosabatlarning demokratlashuviga hamda tarbiyalanuvchilarda ijtimoiy mas'uliyat, empatiya va insoniy qadriyatlarga hurmat kabi sifatning rivojlanishiga xizmat qildi. Shu bilan birga, tadqiqot natijalari tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirish masalasi pedagogik jarayonni tashkil etish madaniyatini takomillashtirish bilan chambarchas bog'liq ekanligini ko'rsatdi.

Umuman olganda, o'tkazilgan tadqiqot tarbiya jarayonida insonparvarlikni rivojlantirishning tashkiliy-pedagogik modelini ilmiy asoslashga, uning nazariy va amaliy ahamiyatini ochib berishga hamda ta'lim muassasalarida tarbiyaviy ishlarni takomillashtirishga qaratilgan muhim xulosalarni shakllantirishga imkon berdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Komenskiy Ya.A. *Buyuk didaktika*. – Moskva: Pedagogika, 1982.
2. Dewey J. *Democracy and Education*. – New York: Macmillan, 1916.
3. Maslow A.H. *Motivation and Personality*. – New York: Harper & Row, 1954.
4. Rogers C.R. *Freedom to Learn*. – Columbus: Merrill Publishing, 1969.
5. Ochilov M. *Pedagogika nazariyasi va amaliyoti*. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
6. Jo'rayev R.H. *Tarbiyaviy jarayonni tashkil etish asoslari*. – Toshkent: Fan, 2015.
7. Zagvyazinskiy V.I. *Pedagogik tadqiqot metodologiyasi*. – Moskva: Akademiya, 2007.
8. Kuzmina N.V. *Pedagogik faoliyat nazariyasi*. – Sankt-Peterburg: Piter, 2008.